

MAKROIQTISODIY VA MIKROIQTISODIY TIZIMLAR

TMC instituti "Amaliy matematika va informatika" kafedrasi o'qituvchisi

Turakulov Shaxnoza Abdurashidovna

Nizomiddinova Sarvinoz.

IQ-23-104-guruh 1-kurs

Annotatsiya. Ushbu maqolada makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy tizimlar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar. Ijtimoiy-iqtisod, ilg'or texnologiyalar, iqtisodiyot, islohot, zamonaviylashuv, makroiqtisodiy.

O'zbekistonda so'nngi davrda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning sur'atlari jadallahib, jamiyat hayotining barcha sohalarida yangilanish, zamonaviylashuv va zamon talablaridan kelib chiqib sifat o'zgarishlari yuz bermoqda. Bu oliy ta'lim tizimi. va xususan, o'quv jarayonida ham kuzatilmoqda. O'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish. Bu jarayonda zamonaviy xorijiy o'quv adabiyotlaridan foydalanish, oliy ta'limning yangi malaka talablaridan kelib chiqib ta'lim jarayonida ilg'or texnologiyalarni qo'llash. Talabalarning mustaqil ta'lim olishlari uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish shular jumlasidandir.

Mamlakatimiz iqtisodiyotida yangi sifatga ega bo'lgan mikro va makro jarayonlar yuzaga chiqmoqda. Bu eng avvalo, bozor munosabatlarining chuqurlashuvi, korxonalar uy xo'jaligi va davlatning bozor subyektlari sifatida faoliyatining takomillashuvi, shuningdek, makroiqtisodiy ko'satkichlarning tobora barqarorlashib borishi makroiqtisodiy muvozanatga erishishning zamonaviy tamoyillariga o'tilayotganligi bilan bog'liqidir. Milliy iqtisodiyotdagi mazkur jarayonlarni chuqurroq idrok etish uchun makro va mikroiqtisodiyot fanini ilg'or, rivojlangan davlatlardagi o'quv adabiyotlaridan foydalangan holda o'qitish bugungi dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Iqtisodiyot bu - jamiyat o'zining cheklangan resurslarini qay tarzda boshqarishini o'rganuvchi fandir. Ko'pgina jamiyatlarda resurslar qudratli diktator tarafidan emas, balki millionlarcha xo'jalik va firmalarning o'zaro xarakatlari orqali taqsimlanadi. Shu bois iqtisodchilar, insonlarnig qay tarzda qaror qabul qilishlarini, ya'ni, ularning qancha ish lash i. nimalarni xarid qilishi, qancha tejab qolishlari va tejab qolgan mablag'larini qanday qilib sarflashlarini tahlil qiladilar. Shuningdek. iqtisodchilar, insonlarning bir-biriga o'zaro ta'sirini hamo'rganadilar. Masalan. ular ko'pchilik xaridor va sotuvchilarning mahsulotning qanday narxda va qancha niqdorda sotlishini

belgilab berishlarini o'rganadilar. Va nihoyat, iqtisodchilar bir butun holda iqtisodiyotga o'z ta'sirini ko'rsatadigan kuch va trendlarni, shu jum ladan, iqtisodiyotning o'rtacha o'sishini, jamiyatning ish qidirib yurgan qatlamlarini va narxlarning qay darajada ko'tarilishini tahlil qiladilar. Iqtisodiyot ko'p jihatlarga ega, lekin bir nechta asosiy g'oyalar ostida birlashadi. Ular quyidagi tamoyillarda o'z aksini topadi. Bu tamoyillar bilan tanishtirishdan maqsad - iqtisodiyotning umumiyligi jihatlarini yoritib berishdir. Ushbu tamouillarni "kelajakda sodir bo'ladigan holatlarning bashorati" deb hisobblashingiz mumkin.

Makroqitisisdiyot - umum iqtisodiy tizimni va uning yirik tarmoqlari faoliyatini o'rganadi. O'rganish obyekti - Milliy daromad, Yalpi ichki mahsulot, iqtisodiy o'sish va umumiyligi bandlik darajasi, narxlar indeksi, iste'mol xarajatlari, milliy ja'mg'armalar va boshqa yirik ko'rsatkichlami o'rganadi.

Mikroiqtisodiyot - alohida iqtisodiy subyektlar (iste'molchilar, ishchilar, investorlar, firmalar va boshqa) Faoliyatini o'rganadi.

Zamonaviy milliy iqtisodiyot murakkab ijtimoiy-iqtisodiy tizimdan iboratdir. Jahonda yuz berayotgan globallashuv jarayonlari, investitsiyalar oqimining tezlashuvi, moliyaviy inqiroz, raqobat muhitining kuchayishi milliy iqtisodiyotning barqaror rivojiga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Bunday sharoitlarda iqtisodiy-matematik modellashtirish milliy iqtisodiyotdagi real jarayonlarni tizimli ifodalaydigan, uning yordamida tizim rivojlanishining pirovard maqsadiga mos ravishda kichik tizimlar rivojlanish variantlarini aniqlash va tadqiq qilishga, ya'ni iqtisodiyotning samaradorligini oshirishga imkon beruvchi amaliy vosita hisoblanadi. Mamlakatimizning rivojlanayotgan iqtisodiyoti uchun nafaqat murakkab ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni tahlil qila oladigan, balki zamonaviy iqtisodiy matematik usullar va modellar asosida kompyuter texnologiyalarini qo'llab, ushbu jarayonlarni ko'p variantli yechimlarini oladigan iqtisodiy-matematik modellashtirish sohasidagi mutaxassislarga bo'lган ehtiyoj ortmoqda. Bu esa iqtisodiyotda vujudga kelgan tendensiyalarni, o'rganilayotgan obyektlar holatini tadqiq qilishga, ularning rivojlanishini prognozlashga va shu asosda milliy iqtisodiyotdagi chegaralangan resurslardan samarali foydalanish maqsadida ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilishga imkon beradi. Hozirgi davrda jahon iqtisodiyotida bo'layotgan o'zgarishlar, globallashuv va integratsiyalashish jarayonlarining tezlashishi, xalqaro raqobatning kuchayishi, texnologiyalardagi uzlusiz va muhim sifat o'zgarishlarining yuz berishi, sotish bozorlari va iste'molchilar talablarining tarkibiy o'zgarishlari har bir xo'jalik yurituvchi subyektdan raqobatbardosh mahsulot yaratish, ishlab

chiqarish jarayonidagi xarajatlarni keskin kamaytirish va boshqaruva bozor talablarini hisobga oлган holda optimal qaror qabul qilishni talab qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Baltayeva L.R., Ishnazarov A.I. Iqtisodiy sistemologiya. О_кув
ко_ланта. – Т.: ТДИУ, 2011. -115 б.
2. Ғуломов С.С., Алимов Р.Х., Салимов Б.Т. Микроиктисодиёт: Олий
ўқув юртлари учун дарслик. –Т.: Шарқ, 2001. –320 б.
3. Абдуллаев А.М., Исломилов А.А., Ишназаров А.И. Иқтисодий
масалаларни ечишда компьютер технологиялари. –Т.: ТДИУ, 2010. –100
б.
4. Шодиев Т. ва бошқалар. Иқтисодий-математик усуllар ва
моделлар. Ўқув қўлланма. –Т.: ТДИУ, 2007. –185 б.
- 6 .Федосеев В.В. Экономико-математические методы и
прикладные модели. Учеб. пос. –М.: ЮНИТИ, 2007. –520 с.